

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Oktyabr, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha o'n oltinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyahasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil oktyabr oyida loyihaga 8 613 172 so'm xayriya qilindi, 57 617 505 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Tarjima	- 1 953 600
Tahrir	- 12 584 880
Video	- 21 322 100
Ma'muriy xarajatlar	- 8 525 600
Bank xarajatlari	- 676 994
Marketing	-
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	- 501 600
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	-
Jihoz va uskunalar	-
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-
Ijara haqi	-
Transport xarajatlari	-
Soliqlar	- 6 579 430
Boshqa xarajatlar	- 5 473 301
Jami	- 57 617 505

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Oktyabr oyida xarajatlarning 62,2 foizi (35 860 580 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 727 873 474 so'm va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 2 106 349 567 so'm sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>
